



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

“MA'RIFATPARVAR AJDODLARIMIZ MEROsi – MILLIY TA'LIM-TARBIYA ASOSI”

Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lif nazariyasi va metodikasi kafedrasi tashabbusi bilan tashkil etilayotgan “**Ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta'lif-tarbiya asosi**” mavzusidagi xalqaro olimlar ishtirokida o'tkazilgan respublika anjumani materiallari

Toshkent – 2024

“Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta’lim-tarbiya asosi” [Matn]: to‘plam / N.Yuldasheva [va boshq.]. – Toshkent, 2024. 453 bet.

Loyiha tashkilotchisi

N.A.Yuldasheva

Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.d., professor

Tahrir hay’ati a’zolari

Quysintosh Abdiyeva

Gavharoy Kamoldinova

Ushbu to‘plamda Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi tashabbusi bilan professor-o‘qituvchilar salohiyatini belgilash va talabalarining ilmiy yo‘nalishdagi o‘rnini oshirish maqsadida “Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta’lim-tarbiya asosi” mavzusida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari yig‘ilgan.

Anjuman quyidagi sho‘balarda faoliyat olib boradi. Bular:

Jadid-ma’rifatparvarlarininig pedagogik merosida boshlang‘ch ta’lim nazariyasi va metodikasini rivojlantirish masalalari;

Jadid pedagogikasining milliy tarbiya haqidagi g‘oyalari va zamonaviylik;

Turkiston jadidlari merosining milliy va xalqaro miqyosda o‘rganilishi va uning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati deb nomlanadi.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

10.Sattorov V.N.. Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41. ISSN (online): 2776-0995 2022

11.Sattorov V.N Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. ISSN(e): 2833-5414 2023

11. Arapbaeva D.G, Amirova B.I. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. -P. 68-70. 2023

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI FANIDAN UY VAZIFALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Husniddin QORABOYEV,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida uyga vazifalarni tashkil etishning shakl, metod va vositalari tahlil qilingan. O‘qish savodxonligi fanidan uy vazifalarini samarali tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: uyga vazifa, mustaqil fikr, boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, faoliyat, hamkorlik.

Abstract. This article analyzes the forms, methods and means of organizing homework in primary school reading literacy classes. Methodical recommendations are given on the effective organization of homework in the subject of reading literacy.

Key words: homework, independent thinking, elementary school, reading literacy, activity, collaboration.

Аннотация. В данной статье анализируются формы, методы и средства организации домашней работы на уроках читательской грамотности в начальной школе. Даны методические рекомендации по эффективной организации домашнего задания по предмету «Читательная грамотность».

Ключевые слова: домашнее задание, самостоятельное мышление, начальная школа, читательская грамотность, активность, сотрудничество.

Dunyo ta’lim tizimida shaxsning ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida takomillashtirilib borilmoxda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e’lon qilinib, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan kelib chiqqan holda metodik muammolar hal etilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan g‘oyalar, yangicha yondashuvlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Ayni paytda boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida uy vazifalarini tashkil etishning metodik jihatlarini aniqlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Mustaqil fikrlashga, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda o‘qish darslarida muayyan mutanosiblikdagi uy vazifalari va ularni so‘rash hamda o‘quvchilarni baholash bilan bog‘liq dars bosqichlarini to‘g‘ri hamda samarali tashkil etishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarining bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha halqaro dastur PIRLS (*Progress in Internatsional Reading Literay Study - matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot*)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtirokini ta’minlash PIRLS) da qatnashishiga va samarali natijaga erishishida boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida tashkil etiladigan uy vazifalarining ham o‘rni beqiyosdir.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirib borib mustaqil hayotga tayyorlashda uy vazifalarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish ahamiyatlidir. O‘qish bo‘yicha uyga vazifa berish va ushbu vazifaning qay tarzda, qay darajada bajarilganini so‘rab, nazorat qilish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining tarkibiy qismlari sirasiga kiradi. Uyga vazifa berish o‘ziga xos ta’lim mazmuni bilan, uy vazifasini so‘rash o‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat bilan bog‘liq bo‘lib, shunga monand maqsad va vazifalarga ega. Uyga vazifa berish zaruriyati shunda namoyon bo‘ladiki, darsda hamma o‘quvchilarining ulavrni jo‘rlikda o‘qitishni

hisobga olmaganda ovoz chiqarib o‘qishlarini tashkil etishning iloji yo‘q. Bolalarning uyda o‘qishlari ana shu bo‘shliqning o‘rnini to‘ldiradi.

Q.Husanboyeva adabiyot darslarining odatdagи qurilishini isloh qilish haqida gapirib, shunday deydi “Shundan (kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishdan – izoh bizniki) kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida darsning uy vazifasini so‘rash, uni mustahkamlash, yangi darsni tushuntirish va uni mustahkamlash, uy vazifasi berish tizimidan voz kechilgan. Ayni holat adabiyot o‘qitish kechimiga ham yangicha yondashuvni taqozo etib, muallimlarni o‘quvchilar faolligini oshiradigan saboq turlaridan foydalanishga undamoqda” [4.178].

2-sinf darsligiga yozilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” nomli metodik qo‘llanmada ta’kidlanishicha, “O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi”[3.29]. Bular, albatta, asosiy strategik maqsadlar hisoblanadi. Ayni paytda quyidagi qo‘srimcha strategik maqsadlar ham mavjud: o‘quvchilarning mustaqil o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish, ijodiy faolligini oshirish, bilimlarni puxta egallahga odatlantirish. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchi intensiv rivojlanadi. Darsda boshlangan ishning qiyomiga yetmagan jihatini uyda davom ettirishga odatlantirish bolaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘quvchida o‘z dunyoqarashini kengaytirishga ichki ehtiyojni uyg‘otish, ma’naviy kamoloti yo‘lida o‘zining ishtirokini ta’minlash; uni matn ustida olib boriladigan ishlar orqali bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, bunda mustaqil ishslash usullarini egallah sari yo‘naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Agar o‘quvchi bilim olishga qiziqsa, u maktabdagi o‘quv fanlarini jiddiy o‘rganadi. Buning uchun bilim olish o‘quvchining ichki tabiiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Ehtiyoj insondagi har qanday qobiliyat namoyon bo‘lishining zarur sharti hisoblanadi. Shundagina yuqoridagi tadbirlar ta’lim amaliyotida o‘z samarasini beradi, o‘quvchini ma’naviy barkamollik sari yo‘naltiradi

Zero, “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida izohlanganidek, “Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik

va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi” [1.28].

Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning “Adabiyot o'qitish metodikasi” nomli o'quv qo'llanmasida “Bilimlarni o'zlashtirishda bolalar mehnati, bu yo'lda ularning erkinligi muhim. O'quvchini mehnat qilishga majbur etish, unga mehnat qilib bilim olishdan zavq olish mumkinligini, mehnatning ehtiyojga aylanishini anglatish tarbiyashunoslik maqsadining asosidir. Qay yoshdagi bola qanday qiyinchiliklarni engib o'ta olishi mumkinligini, mehnatning qanaqasi osonu qaysisi azobli ekanini aniqlab olmoq o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir” [2.59] deb alohida ta'kidlanadi.

“Ona tili o'qitish metodikasi” darsligida o'qish darslarining ahamiyati haqida shunday deyiladi: “Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilaming o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi”[5.67].

“2-sinf o'quvchisiga ona tili va o'qish savodxonligi fanidan qo'yiladigan malaka talablari”ning “O'qib tushunish”ga doirlari orasida quyidagi talablar o'qishning ahamiyatiga yanada oydinlik krita oladi:

- sindarajasiga mos matndagi notanish so'zlar ma'nosini aniqlash uchun lug'atdan (darslik oxiridagi yoki bolalar uchun chiqarilgan boshqa) foydalana oladi;

- matnning ma'lum qismini o'qib, keyinchalik sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qiladi, matnni mantiqan davom ettira oladi;

- onlayn media, reklama hamda sindarajasiga mos badiiy va informativ matnda muallif nazarda tutgan maqsad, matn mohiyatini aniqlaydi, javoblarini matnga tayangan holda asoslab bera oladi.[3.79]

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxonadan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilaming atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilaming bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilaming xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish[1.49].

O'qish darslaridan kuzatiladigan o'ta muhim strategik maqsadlar ta'lim bosqichida umumiy tarzda nazarda tutilsa, bevosita xususiy taktik maqsadlarga amal qilinadi. Bu borada uy vazifalari o'quvchilarning o'qish fani yuzasidan o'tilayotgan yoki o'tilgan darslar mobaynida olgan bilimlari, hosil qilina boshlagan ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash (bilimni ko'nikmaga, ko'nikmani malakaga yaqinlashtirish), talab darajasiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

“Методика преподавания русского языка в школе” nomli darslikda o'quvchilarni turli ma'lumotnomalardan foydalanishga o'rgatish foydali ekanligi ta'kidlanar ekan, bu ish ko'proq uyda ado etilishi uchun imkoniyatlar ko'proqligiga urg'u beriladi. Albatta, buning uchun qisman 3-sinfda, asosan 4-sinf bolalarini barcha turdag'i ma'lumotnomalardan, jumladan, izohli lug'atdan qay tarzda foydalanish mumkinligi bilan tanishtirish, shu ishga odatlantirish zarur. Ma'lumotnomalar so'zlarning, so'z shakllarining ma'nosini anglashga yordam beradi. Ayni paytda, o'quvchilar fikr bayon qilish, o'z fikrlarini gaplar vositasida ifodalash ehtiyoji bilan tegishli qoidalarni qidiradilar. Matn tuzishga doir ayrim qoidalalar o'qituvchi tomonidan berib borilishi mumkin.

Uy vazifalarini bajarish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrashi, boshqalarning nazorati va ko'magisiz shug'ullanish, tadqiq etish hamda qaror qabul qilish, o'z-o'zini baholash kabi hislatlarni qo'lga kiritishi yuz beradi. Ular o'quv materiali ustida muayyan tartibda qat'iyat bilan ish olib borish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar, mustaqil ishlash, o'quv-biluv faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni engib o'tish yo'llarini izlay boshlaydilar,

Matn ustida olib boriladigan ishlardan ko'zlanadigan yuqorida bayon etilgan strategik va taktik maqsadlarga erishishning nechog'li ahamiyatli ekanligi ayon bo'lib turibdi. Lekin o'qituvchi bu maqsadlarga erishish uchun darsdagi o'qish ishlarini, shu ishlar bilan bog'liq uy vazifalarini bilimdonlik va mahorat bilan oxiriga yetkazib tashkil etmog'i shart. Boshqacha aytganda, u uy vazifasi bilan bog'liq taktik maqsadni to'g'ri belgilasa, qiziqish uyg'otsa, ta'lim mazmuni va usullarini o'quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib

chiqqan holda to‘g‘ri ishlab chiqsa, topshiriqni to‘g‘ri tushuntiira olsa, bolalarning kuch-g‘ayratini uy vazifasini ongli bajarishga safarbar eta olsa, kutilgan natijaga (strategik va taktik maqsadlarning ro‘yobga chiquviga) to‘liq erisha oladi.

Xullas, o‘qish darslarida uyga vazifa berish, uning o‘quvchilar tomonidan qay tarzda bajarilganini so‘rash hamda baholash ishlari ning jiddiy tashkiliy muammolar ushbu masala bilan bog‘liq didaktik talablardan kelib chiqilgan holda yechilmog‘i darkor. Bunda darslarning o‘qishga doir bosqichlarida matnning qaysi jihatni ustida ishlanishi, bu ishlarning darsda bo‘sh o‘zlashtirilgan tomoni nazarda tutilishi, darsda matn ustida olib borilgan ish turiga mutanosib tarzda uyga beriladigan vazifani belgilash, o‘quvchilarga uy vazifasini, uning qay tarzda bajarilishi kerakligini yetarlicha tushuntirish, uy vazifasini so‘rashda ham uyga berilgan vazifa bilan mutanosiblikni ta’minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): |K. Qosimova|, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: “NOSHIR”, - 2009. –67-b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017. – 251-b.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 4-b.
4. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. – Toshkent, 2014. – 10-b.
5. O‘qish kitobi: 1-sinf uchun darslik / Muallif-tuzuvchilar: T. G‘afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdiyeva; Mas’ul muharrir: S. Matchonov. — T.: “Sharq”, 2017. — 128 b.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARIDAN BIRI BO‘LGAN ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

MUNDARIJA

I SHO'BA. JADID-MA'RIFATPARVARLARININIG PEDAGOGIK MEROSIDA BOSHLANG'CH TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

PANEL I. ISSUES OF DEVELOPMENT OF THE THEORY AND METHODOLOGY OF PRIMARY EDUCATION IN THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE JADID ENLIGHTENERS

| | |
|--|-----------|
| | |
| Shuhrat TOXTASIMOV, Surayyo ISMATOVA. Jadid olimlarining pedagogik merosi | 10 |
| Нурбой ЖАББОРОВ. Беҳбудий ва туркистонда таълим ислоҳоти | 14 |
| Nozim QOSIMOV. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosida ilmparvarlik g'oyalari | 22 |
| Nilufar YULDASHEVA. Shoir, tarjimon, Muallim | 26 |
| Ozoda MUSAYEVA. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari | 34 |
| Hulkar HAMROYEVA. Jadid pedagogikasining muhim omillari | 38 |
| Yulduz ESHMATOVA. Jadid adabiyotini o'rgatishda innovatsion yondashuv | 43 |
| Dilfuza OTAMURODOVA. Boshlang'ich ta'lif tizimida milliy qadriyatlarning o'rni | |
| | 47 |
| Нилуфар ЮЛДАШЕВА, Ойдиной ҲАЙИТОВА. Значение педагогических парадигм XIX-XX веков в развитии современной педагогики начального образования (на примере джадида Саидахмадходжа Сиддики Аджизи) | 52 |
| Anvar MAVLONOV, Bahodir MAVLONOV. Munavvarqori Abdurashidxonovning pedagogik jihatdan maktab o'quvchilarini tarbiyalashdagi o'rni | 59 |
| Husniddin QORABOYEV. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi fanidan uy vazifalarini samarali tashkil etish | 64 |
| Umida SAPAROVA. Boshlang'ich ta'lifda "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" asarlarining jadid darsliklari orasida tutgan o'rni | 70 |
| Umida SAPAROVA, Kamola BERDIQOBILOVA. Jadidchilik harakati namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniyining pedagogik qarashlari | 75 |
| Shaxnoza QUDRATOVA, Umida BATIRBEKOVA. Boshlang'ich sinflarda tarbiya tizimini takomillashtirish va hamkorlik ahamiyati | 79 |
| Shaxnoza QUDRATOVA, Maftuna SADULLAYEVA. Yangi konstitutsiya. bepul umumiy o'rta ta'lif va boshlang'ich professional ta'lidiagi islohotlar | 84 |